E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Ingliz tilida tez va xatolarsiz o'qishni o'rganish

Karimova Gulfira Hamroqulovna

Shahrisabz State Pedagogical Institute,

2nd level student in the faculty of "Languages"

Abstract: This article shows how to read English quickly and without mistakes and what to do in this way.

Keywords: O'qish,o'rganish,birikmalar,oson yo'li,o'z ustida ishlash,harakat qilish.

Bola maktabga kelganida birinchi navbatda nimani o'rgatadi? Albatta, alifbo, keyin o'qish va yozish. Har qanday chet tilini o'rgatish xuddi shu tildan boshlanadi. Ingliz tilida savodxonlikni o'zlashtirmasdan gapirish mumkinmi?Albatta yo'q.Ingliz tili asosan 4ta tip bo'yicha o'rganiladi.Ular:

- Speaking
- Reading
- Writing
- Listening

Aytaylik, siz noldan ingliz tilini o'rganishni xohlaysiz. Bunday holda, siz eng boshidan, ya'ni 26 harfdan iborat alifbodan boshlashingiz kerak bo'ladi.

Ingliz tilida 20 ta undosh va 6 ta unli bor. Unli tovushlarga A, E, I, O, U, Y. harflar kiradi:

Bugungi kunda tilimizda ko'p uchraydigan xatolar ko'p holatlarda reading va speakingdan kelib chiqadi.Vaholanki ingliz tilida to'gri o'qishni bilmagan inson to'g'ridan to'g'ri gapirishda ham ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi.Asosan ingliz tilida to'g'ri va tushunarli ravishda o'qish uchun zarur bo'lgan 7 qoida mavjud.

1.Agar (G) harfi e,i,y harflari bilan kelsa ko'p hollarda ,,J" deb o'qiladi

Misol uchu:general,gorgeous

2.G harfi e,i,y harflari bilan kelib,istisno hollarda (G) deb o'qiladi

Misol uchun:girl,gift,give

Qolgan hollarda ham shunday o'qiladi:good,google

3.Agar so'zlarda (Ph) harf birikmasi kelsa u ,,F" deb o'qiladi

Misol uchun: photo,phone,morpheme

4.Agar so'zlarda 'bt' harf birikmasi kelsa bu holda 'b' tushib qoladi va (t) o'qiladi

Misol uchun: debt,doubt

5.Agar so'zlarda 'wr' harf birikmasi kelsa bu holda 'w' tushib qoladi va (r) o'qiladi

Misol uchun: write,wrong

6.Agar so'zlarda 'kn' harf birikmasi kelsa bu holda 'k' tushib qoladi va (n) o'qiladi

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Misol uchun:knife,know

7.Agar so'zlarda 'gn' harf birikmasi kelsa bu holda 'g' tushib qoladi va (n) o'qiladi

Misol uchun:gnat

Ba'zi, ota-onalar, farzandi hamma narsani tezda va birinchi darsdanoq tushunishlari shart deb hisoblashadi. Biroq, ingliz tilida o'qish juda ko'p ish! Shuning uchun, bu masala bo'yicha natijani faqat 1,5-2 oylik mashg'ulotdan so'ng kutish kerak (va faqat ota-onalar bolaga bosim o'tkazmasa).Bola o'z erkinligi bilan biror ma'lumotni o'rgansa o'sha ma'lumotning esda qolish foizi ko'proq bo'ladi.Shuning uchun, agar bolangiz ingliz tilida o'qishni hech qanday tarzda o'zlashtira olmasa, uni shoshiltirmang!. O'quv jarayoni uning uchun yoqimli tajriba, xotirjam va izchil bo'lsin, bu oxir-oqibat uni ajoyib natijaga olib keladi!

Agar siz ingliz tilini o'qiy olmasangiz, tushkunlikka tushmang. Ma'lumotlarga qaraganda AQSh aholisining deyarli 14%, ya'ni 32 million kishi o'qiy olmaydi! Bundan tashqari, aholining 21 foizi beshinchi sinf o'quvchisi darajasida o'qiydi. Ingliz tilini o'qishni o'rganishga hech qachon kech bo'lmaydi! Ushbu maqolani o'qing va nimaga e'tibor berish kerakligini tushunasiz.

Biz qoidalarga amal qilib o'z ustimizda ishlasak o'ylaymanki ko'plab muammolardan qutulamiz.Har kuni o'qishga harakat qiling. Har kuni kamida 20-30 daqiqa ingliz tilidagi kitoblarni o'qishni qoidaga aylantiring. Til bilish darajangizga qarab kitoblarni tanlang. Dastlabki bosqichda siz ertak va qisqa hikoyalarni o'qishingiz mumkin. Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vaqti-vaqti bilan ingliz tilidagi davriy nashrlar va bloglarni ko'rib chiqish ham foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 ,https://www.sadikov.uz/news/ingliz-tilida-togri-oqish-uchun-zarur-boladigan-7-qoida

2.https://optolov.ru/uz/dizajjn-detskojj-komnaty/kak-bystro-nauchit-chitat-na-angliiskom-yazyke-transkripciya-i-pravila-chteniya.html

WORDLY
KNOWLEDGE